Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuritdinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	
Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	1254
Axmedov Akmal Yusufovich, Muhammadjonova Zarnigor Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod va vositalar	1258
Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Samandarova Shahnoza	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1262
G. Sh. Tursunova	
Professional Needs of Deputy Directors at Secondary Schools	1266
Jambilov Nurillo Xabibilloevich	
Virtual reallik texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	1269
Mamadjonova Nozima Adhamovna	
AI or Corpus: Which is Better for Teaching English Vocabulary?	1272
Munajat Sultonova	
O'quvchilarni kasbga yo'nal tirishning pedagogik asoslari	1275
Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna	
Ingliz tilida talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish misolida)	1278
Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi	

Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiya: o'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Cad, 3D modellash, VR) roli	1281
Tadjiyeva Feruza Muxtarovna	
Raqamli ta'lim ekotizimi: AKT asosida axborot-ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalarni joriy etish tajribasi	1286
Toshkentov Akmal Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1290
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi	
Теория коммуникации как методологическая основа изучения трансформации языковой нормы в эпоху цифровых медиа.....	1294
Дилшодбеков Темур Дилшодбек угли	
Значение усвоения учебных материалов в процессе формирования биологических понятий у учащихся.....	1297
У. О. Шарибаева	
Specifics of Teaching Professional Terminology to Students of Economic Specialties	1301
Хамдамов Рамзбек Мадаминжонович	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	1306
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	1311
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladigan qaraqalpaq adabiyati saba'ida qollanilgan abzalliklari	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarning mustaqil ish loyihasini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi.....	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarning o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	

Media to'garaklarini gospital ta'limda tashkil etishga oid xorijiy tajribalar tahlili.....	1469
Abduraximova Nozimaxon Baxadirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi.....	1475
Abduraxmonova Noila Nasim qizi	
Raqamli transformatsiyaning mohiyati, xususiyatlari va sotsiomadaniy jarayonlarga ta'siri.....	1479
Bakirov Otabek Bo'ranovich	
Ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiq qilishning optimal shakl va usullari.....	1484
Eshboyev Shoira Azamatovna	
Singapur, Angliya, Rossiya va O'zbekiston o'quv dasturlarida o'qish savodxonligi yondashuvlari	1488
Eshonkulova Hilola Rajab qizi	
O'quv mashg'ulotlarini tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	1492
Fayziyeva Maftuna Ilxomovna	
Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida bolalarni bilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	1496
Jaloldinova Madinaxon Xojakanovna	
Oliy harbiy ta'lim tizimida kursantlarning psixologik moslashuvi va shaxsiy shakllanishining psixologik omillari.....	1499
Kushbayev Sardor Kenjabayevich	
Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishning samarali usullari	1502
Lola Ibragimova	
Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli	1506
Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna	
4K modeli asosida darslarni tashkil etish.....	1511
Nazarova Mavluda Uktamovna	
Ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishda pedagogik targ'ibotning o'рни.....	1514
Ochilova Dilrabo Ibragimovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish ..	1517
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Muhandislik ta'limida texnologik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	1520
Turayeva Nargiza Nasrullayevna	
Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'рни va ahamiyati.....	1524
Ulug'murodova Nargiza Norovna	
Experimental Justification and Evaluation of the Effectiveness of a Gymnastics Exercise Complex Based on a Differential Approach In The Prevention of Metabolic Syndrome and Overweight In Women of Reproductive Age.....	1528
Urazova Muborak Yuldosheva	
PIRLS xalqaro tadqiqotida o'qituvchi omilining o'quvchilar natijasiga ta'siri.....	1532
Usmonova Yulduz Abdusaid qizi	
Когнитивные стили обучающихся как ключевой нейропсихологический компонент	1537
Эгамбердиева Фарида Октамовна	
Markaziy Osiyoda dizaynning rivojlanish istiqbollari.....	1540
Abdijalilov Abdivohid Abdihalimovich	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik imkoniyatlar	1544
Yusupova Shaxnoza Qodirjonovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna	
Oliy ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri	1549
Alimova Mavluda Shuxratbekovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi (filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi misolida)	1553
Axadova Shaxnoza Odiljonovna	
Algorithmic Filtering and Social Polarization	1556
Azizova Shodiya Utkur kizi	
Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning huquqiy madaniyatni rivojlantirishmetodlari	1560
Boymirzayeva Raximaxon Xoshimjonovna	



Globalashuv sharoitida oilaning an'anaviy qadriyatlari va zamonaviy tendensiyalari nisbati	1565
<i>Ergashova Guljahon Akmal qizi</i>	
Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda (5–6 va 6–7 yosh) kognitiv rivojlanishni tashkil etishda o'yin turlarini tanlashning pedagogik asoslari	1569
<i>Fozilova Odina Nabiyeвна</i>	
Tibbiy ta'lim talabalarining amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	1572
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1576
<i>Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich</i>	
"Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirishning samaradorlik darajasi.....	1580
<i>Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali shakllantirishning psixolingvistik masalalari.....	1585
<i>Karimova Dilyora Raximjon qizi</i>	
Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni pedagogik loyihalashtirishda reflektiv yondashuvi turlari	1589
<i>Nurmanov Alisher Shaymardonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillastirish.....	1591
<i>Sh. A. Abdullayev</i>	
Tibbiy ta'limda talabalar kognitiv tafakkurini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari.....	1594
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Supichakov Xondamir Xamidovich, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
O'quvchilarda ingliz tilidagi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda tizimli yondashuvning roli.....	1598
<i>Tojiyeva Anora Baxtiyorovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tushunchasi va rivojlanish bosqichlari	1602
<i>Toshboltayeva Malohatoy Valijon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	1605
<i>Turobova Nilufar Umedullayevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda fasilitatorlik sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi.....	1610
<i>Xamidova Sabrina Abduvahob qizi</i>	
Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1615
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini o'stirishda kompyuter o'yinlarining o'rni	1620
<i>Yalgasheva Zilola Hazratkul qizi</i>	
O'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish	1624
<i>Yuvashov Sherzod Ulmasovich</i>	
Формирование лингвокультурной компетенции студентов-филологов в процессе изучения русского языка как неродного	1628
<i>Имомалиев Шукурулло Шухратович</i>	
"Time Management" tushunchasi va oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlik	1631
<i>Sirojova Nafisa Isomiddin qizi</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish: mazmuni va turlari ..	1635
<i>Yusupova Shahnosa Qodirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmonovna</i>	
Birlamchi sogliqni saqlash tizimida oilaviy shifokorni tayyorlashda an'anaviy institutsional yondashuv (adabiyotlar sharhi).....	1639
<i>Abduvaxobova Nozima Raxmanovna, Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna</i>	
Oila shifokorining tibbiy faoliyatining kommunikativ asoslarini rivojlantirish	1643
<i>Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish (adabiyotlar sharhi).....	1652
<i>Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna, Abduvaxobova Nozima Rahmonovna</i>	



TIBBIY TA'LIMDA INTERAKTIV SIMULYATORLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich

T.f.d., professor, Andijon davlat tibbiyot instituti
Xirurgik kasalliklar kafedrası professori

Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna

Assistent, Andijon davlat tibbiyot instituti
Gospital terapiya va endokrinologiya kafedrası

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy ta'lim tizimida interaktiv simulyatorlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil etilgan. Simulyatsion texnologiyalar orqali talabalarda klinik tafakkur, amaliy ko'nikmalar hamda muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda interaktiv simulyatorlarning o'quv materialini vizual, kinestetik va tajribaviy asosda o'zlashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatidagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, interaktiv simulyator, didaktik imkoniyat, amaliy ko'nikma, klinik tafakkur, ta'lim texnologiyalari, refleksiya.

Abstract: This article analyzes the didactic possibilities of using interactive simulators in the medical education system. The study highlights how simulation technologies contribute to the development of clinical reasoning, practical skills, and decision-making abilities in problem-based scenarios among students. The role of interactive simulators as pedagogical tools that facilitate the assimilation of educational material through visual, kinesthetic, and experiential learning approaches is emphasized.

Key words: medical education, interactive simulator, didactic potential, practical skills, clinical reasoning, educational technology, reflection.

Аннотация: В данной статье проанализированы дидактические возможности использования интерактивных симуляторов в системе медицинского образования. Рассмотрено, как симуляционные технологии способствуют формированию клинического мышления, практических навыков и способности принимать решения в проблемных ситуациях у студентов. В исследовании показана роль интерактивных симуляторов как педагогического средства, обеспечивающего усвоение учебного материала на визуальной, кинестетической и практической основе.

Ключевые слова: медицинское образование, интерактивный симулятор, дидактический потенциал, практические навыки, клиническое мышление, образовательные технологии, рефлексия.

KIRISH

XXI asr tibbiy ta'limi innovatsion yondashuvlar, texnologik vositalar va ilg'or o'qitish metodlarisiz tasavvur etilmaydi. Ta'lim sifatini oshirish, talabalarda real kasbiy vaziyatlarga tayyorgarlikni kuchaytirish bugungi kunda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, interaktiv simulyatorlardan foydalanish o'quv jarayoniga zamonaviy didaktik imkoniyatlarni olib kiradi.

Simulyatorlar yordamida o'quvchilar nazariy bilimlarini real klinik holatlarda sinovdan o'tkazishlari, xatolarni xavfsiz muhitda amalga oshirib, ularni tahlil qilishlari mumkin. Bu esa talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, klinik qaror qabul qilish va reflektiv tahlil qilish salohiyatini rivojlantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanish masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Cook, Hatala va Brydges tomonidan olib borilgan keng qamrovli metaanalizda texnologiyalar yordamida tashkil etilgan simulyatsion mashg'ulotlarning tibbiy ta'limda o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ilmiy asosda isbotlangan. Mualliflar nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, talabalarda klinik tafakkur va reflektiv yondashuvni shakllantirishda simulyatsion texnologiyalar muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston olimlari ham bu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Hasanovning dissertatsiya tadqiqotida interaktiv simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi o'rganilib, ularning talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shu bilan birga, simulyatsion texnologiyalar talabalarda mustaqil fikrlashni, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va klinik muhitga yaqinlashishda samarali ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan.

Xorijiy olimlardan Ziv, Ben-David va Ziv tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda simulyatsion ta'lim tibbiy ta'lim tizimida nafaqat didaktik, balki etik zarurat sifatida ham talqin etiladi. Bradley esa tibbiy ta'limda simulyatsion texnologiyalarning tarixiy rivojlanishini va istiqbolli yo'nalishlarini yoritib, ushbu yondashuvning global miqyosda ta'lim sifatini oshirishdagi o'rnini ko'rsatadi. Shu tariqa, ilmiy manbalar interaktiv simulyatorlardan foydalanish tibbiy ta'lim samaradorligini oshirishning dolzarb yo'nalishi ekanligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va tibbiy ta'limga oid xalqaro hamda mahalliy adabiyotlardan olindi. Asosiy manbalar sifatida Cook, Hasanov, Ziv va boshqa olimlarning ishlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy tahlil usuli asosida solishtirildi, umumlashtirildi va interaktiv simulyatorlarning didaktik imkoniyatlari ilmiy asosda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Interaktiv simulyatorlar tibbiy ta'limning samaradorligini oshirishda quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega:

1. Nazariya va amaliyotni integratsiyalash

Simulyatorlar yordamida talabalar nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa klinik fikrlash va amaliy malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Simulyatorlardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri nazariya va amaliyotni integratsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratishidir. An'anaviy ta'limda talabalar ko'pincha nazariy bilimlarni yaxshi o'zlashtirsa-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu muammo, ayniqsa, tibbiyot sohasida ko'proq seziladi, chunki klinik holatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, talabalardan tezkor qaror qabul qilish hamda o'z bilimlarini bemor holatiga mos ravishda qo'llash talab etiladi.

Interaktiv simulyatorlar orqali talabalar nazariy bilimlarni klinik holatlarga maksimal yaqinlashtirilgan virtual muhitda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada talabalar nafaqat o'qigan nazariy bilimlarini yaxshi tushunadilar, balki ularni bevosita amaliy faoliyatda ham qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradilar. Shu orqali simulyatorlar nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi an'anaviy ajralishni sezilarli darajada kamaytiradi hamda talabalarni haqiqiy klinik muhitga samarali tarzda tayyorlaydi ^[1].

Bundan tashqari, simulyatsion vaziyatlarda talabalar klinik fikrlash, tashxis qo'yish va davolash jarayonlarini real vaziyatga yaqin holatda amalga oshiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida nazariy bilimlarini amaliyot bilan uzviy bog'lagan holda samarali qo'llashlariga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, interaktiv simulyatorlar nazariya va amaliyotni samarali integratsiyalash orqali talabalarning professional kompetentligini shakllantirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

2. Xavfsiz o'quv muhiti yaratish

Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning eng muhim jihatlaridan biri talabalar uchun xavfsiz o'quv muhitini yaratish bilan bog'liqdir. Tibbiyot amaliyotida talabalar yo'l qo'yadigan har qanday xato bemor salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, an'anaviy o'quv jarayonida talabalarning faol va mustaqil harakat qilishini cheklaydi hamda ularni ko'proq passiv kuzatuvchi rolda qoldiradi.

Simulyatsion texnologiyalar talabalar uchun xavfsiz va nazorat qilinadigan sun'iy klinik sharoit yaratadi. Bu muhitda talabalar klinik vaziyatlarni cheksiz ko'p marotaba qayta-qayta mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xato qilishdan qo'rqmaslik va bemor sog'lig'iga zarar yetkazish ehtimoli bo'lmagani sababli talabalar klinik muolajalarni bema'lol va ishonch bilan bajaradilar. Buning natijasida ular nafaqat klinik vaziyatlarni chuqurroq tushunadilar, balki xatolarini tahlil qilish va ulardan to'g'ri xulosa chiqarish malakasini ham rivojlantiradilar ^[2].

Shu bilan birga, xavfsiz muhit talabalar psixologik jihatdan ham emin bo'lishlariga, stress va bosim ostida ishlash ko'nikmalarini asta-sekin shakllantirishlariga yordam beradi. Bu esa ularning kelajakda haqiqiy klinik sharoitlarda samarali va xatosiz faoliyat yuritishlariga asos bo'ladi.

3. Individual yondashuvni ta'minlash

Tibbiy ta'lim jarayonida interaktiv simulyatorlardan foydalanishning yana bir afzalligi individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatining mavjudligidir. Talabalar turli xil bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati, qiziqish va



ehtiyojlarga ega ekanligini inobatga olsak, umumiy standartlarga asoslangan an'anaviy ta'lim barcha talabalarining ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi.

Interaktiv simulyatorlar esa aynan shu muammoni hal qilishda samarali vosita hisoblanadi. Ularning yordamida talabalar o'z bilim va ko'nikmalarining boshlang'ich darajasiga, shaxsiy qiziqishlariga va o'zlashtirish tezligiga ko'ra individual ta'lim vaziyatlariga duch kelish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa har bir talabaga maxsus moslashtirilgan murakkablik darajasi va klinik vaziyatlarni tanlash imkoniyatini yaratadi ^[3].

Individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish orqali talabalar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini tezroq aniqlaydilar hamda tegishli ko'nikmalarni rivojlantirish ustida samarali ishlay oladilar. Shuningdek, simulyatorlar yordamida har bir talabaga o'z imkoniyatlari va qobiliyatiga mos ravishda murakkablikni bosqichma-bosqich oshirib borish imkoniyati beriladi. Bu esa ularning motivatsiyasini va ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

4. Klinik holatlar bo'yicha qayta-qayta mashq qilish imkoniyati

Interaktiv simulyatorlarning didaktik imkoniyatlari orasida murakkab klinik holatlarni qayta-qayta mashq qilish imkoniyatining mavjudligi alohida ahamiyatga ega. Tibbiy amaliyotda ba'zi holatlar kam uchraydi yoki real sharoitda ularni talabalar tomonidan takror-takror amalga oshirish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Bu esa talabalarni murakkab vaziyatlarga to'liq tayyorlashni qiyinlashtiradi.

Simulyatorlarning qo'llanilishi bu muammoni samarali tarzda hal qiladi. Chunki talaba har qanday murakkab klinik holatni virtual va xavfsiz sharoitda istalgancha takrorlab, ko'nikmalarini mukammallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu jarayon orqali talabalar amaliy ko'nikmalarni avtomatizm darajasiga yetkazadilar, klinik fikrlash va qaror qabul qilish jarayonini puxta shakllantiradilar ^[4].

Qayta-qayta mashq qilish, ayniqsa, favqulodda va murakkab klinik vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish refleksini rivojlantiradi. Natijada talabalarda o'zlariga bo'lgan ishonch ortadi, xatolar kamayadi va ularning haqiqiy klinik muhitda tez va samarali qaror qabul qilish salohiyatlari mustahkamlanadi.

5. Talabalarining xatolarini tahlil qilish va amaliy ko'nikma hosil qilish imkoniyati

Interaktiv simulyatorlardan foydalanishning yana bir muhim didaktik imkoniyati talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni qayd etish, ularni tahlil qilish va amaliy ko'nikma hosil qilish uchun sharoit yaratish bilan bog'liqdir. Tibbiyot sohasida xatolar odatda jiddiy oqibatlariga olib keladi, biroq ta'lim jarayonida talabalarining o'z xatolarini tahlil qilib, ulardan saboq olishlari katta ahamiyat kasb etadi.

Simulyatorlarning qo'llanilishi orqali talabalar xato qilganda, tizim avtomatik tarzda ushbu xatoni qayd etadi va uni ko'rib chiqish, tahlil qilish imkonini beradi. Bunda talabalar xatolarning sababini aniqlab, ulardan xulosa chiqarish va kelgusida bu xatoni takrorlamaslik uchun tegishli bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi ^[5].

Shuningdek, simulyatorlar xatolarni vizual tarzda ko'rsatish yoki qayta ko'rib chiqish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa talabalarining refleksiv fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda o'z xatti-harakatlariga tanqidiy va tahliliy yondashuvni shakllantiradi.

Xatolarni tahlil qilish va amaliy ko'nikma hosil qilish talabalarda klinik vaziyatlarni yaxshiroq tushunish, bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurroq o'zlashtirish hamda o'z harakatlari uchun mas'uliyat hissini shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayon talabalarni bo'lajak kasbiy faoliyatda kamroq xato qilishga, bemor xavfsizligini ta'minlashga va professional rivojlanishga undaydi.

6. Amaliy ko'nikmalarni avtomatik baholash imkoniyati

Interaktiv simulyatorlardan foydalanish orqali amaliy ko'nikmalarni avtomatik baholash imkoniyatining mavjudligi tibbiy ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy ta'lim tizimida talabalarining amaliy ko'nikmalari odatda shifokorlar tomonidan baholanadi va bunda subyektivlik omili yuqori bo'ladi. Oqibatda, baholash jarayonining shaffofligi va obyektivligi ta'minlanmay qolishi mumkin.

Simulyatorlardan foydalanilganda esa talabalarining amaliy harakatlari maxsus algoritmlar asosida avtomatik ravishda aniq va xolis baholanadi. Bu esa har bir talabaning ko'nikmalarini obyektiv ravishda baholash, talabalarga o'z harakatlari haqida darhol aniq fikr olish imkoniyatini beradi. Natijada talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniq ko'rib, o'z ustida ishlashi va rivojlanishi uchun yo'nalishlarni belgilab oladi ^[6].

Avtomatik baholash, shuningdek, baholash jarayonidagi inson omili sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik va adolatsizliklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, pedagoglar uchun ham vaqt tejiladi va ular talabalar bilan individual ishlashga, shuningdek, ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ko'proq vaqt ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, avtomatik baholash natijalari statistik jihatdan tahlil qilinishi mumkin, bu esa umumiy o'quv jarayonining sifatini oshirish va metodik ishlarni takomillashtirishda juda foydali hisoblanadi.

7. Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish

Tibbiyot amaliyotida samarali jamoaviy ishlash va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lish professional faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo'lajak shifokorlar bemorlarni samarali tashxislash, davolash hamda boshqa tibbiyot xodimlari bilan samarali hamkorlik qilish uchun ushbu ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Shu nuqtayi nazardan, interaktiv simulyatorlardan foydalangan holda tashkil etilgan guruhli mashg'ulotlar talabalarning jamoaviy ishlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Simulyatsion mashg'ulotlar jarayonida talabalar klinik vaziyatlarni guruh tarkibida birgalikda tahlil qiladilar, muammolarni muhokama qiladilar, mas'uliyatlarni taqsimlaydilar va birgalikda qaror qabul qilishga o'rganadilar. Bu orqali ular nafaqat shaxsiy bilim va ko'nikmalarini namoyish etadilar, balki jamoaviy ish jarayonida boshqa guruh a'zolarining fikrlarini hurmat qilish, tinglash va hisobga olish kabi kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar [7].

Guruhli simulyatsiyalar talabalarni kelgusida haqiqiy klinik amaliyotda uchraydigan murakkab vaziyatlarga tayyorlaydi. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlar va shoshilinch yordam talab qiluvchi klinik holatlarda samarali jamoaviy ishni tashkil etish, aniq va samarali kommunikatsiyani amalga oshirish talabalarga amaliy tajriba beradi.

Shuningdek, jamoaviy simulyatsiyalar talabalarda liderlik qobiliyatlari, jamoaviy mas'uliyat, konfliktlarni hal qilish va birgalikda ishlash orqali umumiy maqsadga erishish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Ushbu pedagogik yondashuv bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatlarida samarali va ishonchli harakat qilishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

8. Stressga chidamlilik va professional mas'uliyatni shakllantirish

Tibbiyot sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar uchun stressli vaziyatlarda samarali ishlash va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Klinik vaziyatlar ko'pincha kutilmagan, murakkab va yuqori mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli bo'lajak shifokorlarni stress sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash zamonaviy tibbiy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Interaktiv simulyatorlar aynan shu jihatdan katta afzallikka ega, chunki ular talabalar uchun haqiqiy klinik sharoitlarga juda yaqin favqulodda vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Talabalar simulyatsion mashg'ulotlar davomida stressli holatlar bilan yuzma-yuz kelib, bosim ostida tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu orqali ular bosim ostida o'zini yo'qotmaslik, vaziyatni aniq baholash va kerakli harakatlarni amalga oshirish qobiliyatlarini shakllantiradilar.

Bundan tashqari, simulyatsion muhitdagi stressli vaziyatlar talabalar uchun professional mas'uliyatni his qilishlariga ham yordam beradi. Chunki ular qaror qabul qilishdagi har bir harakatlari qanday oqibatlarga olib kelishini aniq ko'radilar va bu orqali bemor salomatligi uchun mas'uliyatning qanchalik yuqori ekanligini anglay boshlaydilar.

Stressli vaziyatlarga ko'nikish, bosim ostida samarali faoliyat yuritish, mas'uliyatni his qilish kabi fazilatlar nafaqat talabalar kasbiy rivojlanishi, balki ular shaxsiy jihatdan shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

Tibbiyot sohasida samarali mutaxassis sifatida faoliyat yuritish uchun mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish juda muhim hisoblanadi. Bo'lajak shifokorlar ko'pincha murakkab klinik vaziyatlarda bemorning ahvolini tez va to'g'ri baholash, aniq tashxis qo'yish va optimal davolash taktikasini tanlashga majbur bo'ladilar. Bunday vaziyatlarda ular o'zlarining nazariy bilimlari va amaliy tajribalariga tayanib mustaqil qaror qabul qilishlari zarur.

Interaktiv simulyatorlar aynan shu ko'nikmani samarali rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. Simulyatsion mashg'ulotlarda talabalar bemorning holatini mustaqil ravishda baholaydilar, zarur diagnostik muolajalarni amalga oshiradilar, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilib, aniq tashxis qo'yadilar hamda tegishli davolash choralari belgilaydilar. Simulyatorlar o'quvchilarga qaror qabul qilish jarayonida bir nechta variantlar ichidan eng samarali variantni tanlash imkoniyatini beradi.

Bu jarayon davomida talabalar nazariy bilimlarni amaliy holatlarga qo'llash, mustaqil fikrlash, o'z harakatlari ishonch hosil qilish, shuningdek, qabul qilgan qarorlarining oqibatlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada talabalar qaror qabul qilish ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, klinik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi simulyatsion muhitda shakllantirilgandan so'ng talabalar haqiqiy klinik sharoitda o'zlariga bo'lgan ishonch bilan ishlashlari mumkin bo'ladi. Bu esa kelgusida ularning professional faoliyatda samarali faoliyat yuritishlariga asos yaratadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tibbiy ta'lim jarayonida interaktiv simulyatorlardan foydalanish talabalarda klinik tafakkur, amaliy ko'nikma va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Simulyatsion texnologiyalar xavfsiz va nazorat qilinadigan o'quv muhitini yaratib, talabalarni real klinik vaziyatlarga tayyorlaydi, xatolarni tahlil qilish va refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. Bundan tashqari, individual yondashuvni ta'minlash, jamoaviy ishlash, stressga bardoshlilik va professional mas'uliyatni shakllantirish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan muntazam foydalanish tizimini yo'lga qo'yish;
- o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;
- amaliy mashg'ulotlarda simulyatsion texnologiyalarni kengaytirish va ularni baholash tizimini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cook D. A., Hatala R., Brydges R. Technology-enhanced simulation for health professions education: a systematic review and meta-analysis. // JAMA. – 2021. – Vol. 306(9). – P. 980.
2. Hasanov E. M. Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatsiya texnologiyalarining samaradorligi. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Toshkent, 2022. – 178 b.
3. Ziv A., Ben-David S., Ziv M. Simulation Based Medical Education: an Ethical Imperative. // Academic Medicine. – 2023. – Vol. 78(8). – P. 787.
4. Петрова О. Л. Использование симуляционных технологий в подготовке врачей общей практики. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербургский государственный педиатрический медицинский университет, 2020. – 190 с.
5. Ziv A., Ben-David S., Ziv M. Simulation Based Medical Education: an Ethical Imperative. // Academic Medicine. – 2023. – Vol. 78(8). – P. 786.
6. Смирнов Д. Симуляционные методы обучения в хирургии: педагогические аспекты. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Первый Московский государственный медицинский университет имени И. М. Сеченова, 2022. – 195 с.
7. Bradley P. The history of simulation in medical education and possible future directions. // Medical Education. – 2023. – Vol. 40(3). – P. 254.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.